

## YORDAMCHI PROYEKSIYALASH USULINING PROYEKSIYALASH USULLARIDAN FARQLI JIXATLARI

Ko'kiyev Boburmizro Baxodir o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi


**Annotatsiya.** Maqloda proyeksiyalash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Proyeksiyalash usli va proyeksiyalashga oid grafik masalalarini yechish usllari ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** proyeksiya, detal, qirqim, ellips, prizma, frontal, profil, gorizontal, izometriya, tekislik.

Ta'lrim sohada bo'layotgan o'zgarishalardan har bir fan o'qtuvchisi o'z sohasidan kelib chiqib o'zining fanidan talabalarga zamonaviy bilm, tarbiya berishlarini belgilab berildi. Shunday ekan chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o'qtish jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatni rivojlantirish, fazoviy tassavurlarini o'stirish, talabalarning fan yuzasidan chuqr bilim, egalashlari uchun izlanishalar olib borilmoqda. Talabalarning ijodiy faoliyatni rivojlantirish, maqsadida fan yuzsidan beriladigan mustaqil ta'lum topshiriqlarini bajarish jarayonida kam vaqt sarflab maslani yechimiga erishish. Yoki masalani yechimiga boshqa usllar bilan erishish yo'llari orqali talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish ko'zda tutilmoqda. Bu usul yordamchi proyeksiyalash usuli bo'lib chizma geometriya fanidagi kamdan kam ishlatalidigan usuldir. Usulning mohiyati kam vaqt sarflab yechimiga erishish yoki grafik masalaning yechimiga boshqa aperatsiya orqali erishishdan iboratdir. Bu usulning asoschisi S.M.Koltov hisoblanadi. Izlanishlarimiz jarayonida bu usulni talabalar mustaqil ta'lum topshiriqlarini bajarish jarayonlarida yetarli ma'lumotlar keltirilmaganligi aniqlandi. Talabalarning fan olimpiyadalarda imtihonlar topshirayotganda bu usullni qo'lash orqali masalani yechimiga sodda yo'l orqali erishishni taminlashdan iborat. Bu usullarni qo'llay olgan talaba imtihon yoki tanlovlarda qoshimcha ballarga ham ega bo'lishlari ko'zda tutilmoqda. Yordamchi proyeksiyalash usullarini o'qtish orqali talabalarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ijobiy tasir ko'rsatishi hamda, talabalarni chizma geometriya faning yordamchi proyeksiyalash usullarini chuqurroq o'rghanishga undaydi<sup>1</sup>. Hozirgi kunda "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lum yo'nalishi talabalarini bajarib kelayotgan grafik ishlaridan birini va yordamchi proyeksiyalash usulida yechilish jarayonini ko'rib chiqamiz. Bu ikki misoldan talaba o'ziga mos usul bilan grafik ishlarini yechish va bir grafik ishni ikki usulda yechilishini taxlil qilib borish bilan birga ijodiy faoligini oshirib boraveradi. Ijodiy qobiliyat insonning faqatgina tug'ma xislati bo'libgina qolmay, uning shakllanishi va rivojlanishi mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarga bog'liqdir.


Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, aqliy qobiliyatni faqat fikr yuritish jarayonida rivojlantirish mumkin. Rivojlanish o'quvchidan boshqalar o'ylab topgan haqiqatdan shunchaki andaza olish yoki uni o'zlashtirishgina emas, balki izlanish xususiyatidan mustaqil fikrlash faoliyatini talab qiladi. Demak, rivojlanish o'quvchining mustaqil faol mehnatining samarasiga bog'liq. Birinchi misolimizda talabalarga hozirgi kuda grafik ish uchun berilayoygan variantlardan boshlaymiz. Masalani yechimiga qanday erishishni chizmalar asosida ko'rib chiqamiz. Fazoviy tassavuri yaxshi shakillangan talaba yoki o'quvchi chizmalarni yechilish bosqichi orqali nima vazifalarni bajarish kerak ekanligini o'qiy oladi. Buning uchun esa talaba o'z ustida ishlashi kerak bo'ladi 1- masala. Asosi  $H$  tekislikda joylashgan uch yoqli ABC og'ma prizma va  $a$  ( $a', a''$ ) to'g'ri chiziq proyeksiyalari bilan berilgan.  $a$  to'g'ri chiziqning prizma yoqlari bilan kesishish nuqtalarning proyeksiyalari topilsin va uning ko'rinar-ko'rinnas qismlarini aniqlansin (1-2-rasmlar). Bu misolni to'g'ri chiziq orqali o'tuvchi prizma qirralariga parallel bo'lgan yordamchi tekislik o'tkazish yoli bilan yechamiz.

<sup>1</sup> THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN TEACHING ASSISTIVE DESIGN Kokiev Boburmizro Bahodir oglis a teacher at Chirchik State Pedagogical Institute in Tashkent region [b.kukiev@cspi.uz](mailto:b.kukiev@cspi.uz)




1-bosqich

1-rasm




2-bosqich

2-masala. Yuqoridagi chizmalarni yechilish jarayonini endi yordamchi proyeksiyalash usulida yechib ko‘ramiz. Birnchi navbatda prizmani berilgan asoslarini davom etirib ularni o‘zaro kesishish chiziqlarini topib olamiz.  $a$  ( $a', a''$ ) to‘g‘ri chiziqlar ham davom etirilib fazoda o‘zaro kesishgan nuqtasini topib olamiz so‘ngra  $a$  ( $a', a''$ ) to‘g‘ri chiziqdan ixtiyoriy  $N$  ( $N', N''$ ) tuqtani belgilab olamiz.  $N$  ( $N', N''$ ) lardan prizmani qirralariga parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazamiz  $a$  ( $a', a''$ ) va  $N$  nuqtalar birlashtirib to‘g‘ri chiziq chizamiz. Bu to‘g‘ri chiziq prizmaning asosini kesib o‘tadi kesib o‘tgan  $M$   $L$  nuqtalarni prizmaning asosiga parallel to‘g‘ri chiziqlar bilan orqaga qaytaramiz. Prizmani kesib o‘tuvchi  $a$  ( $a', a''$ ) to‘g‘ri chiziqni kesib o‘tuvchi  $M$ '' va  $N$ '' nuqtalar hosil bo‘ladi. Bunday amallarni bajarish bilan talabalarda bir masalani yana bir usul bilan yechish mumkinligini bilgach har qanday masalani yechimini yana boshqa usullar bilan yechshga urinib ko‘radi. Mustaqil izlanishlar olib borish bilan birga ijodiy faoliyatni rivojlantirib borishi talabalarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi.



1-bosqich

2-rasm



2-bosqich

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodov, Sh.K va boshkalar, (2020). Chizma geometriya. Oliy pedagogika o‘kuv yurtlari uchun darslik, Toshkent, "Iqtisod-moliya".
2. Kokiiev, B.B. (2020). Present-day problems of drawing science. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), 203-205.
3. 17. Ashirboyev, Azim. "CHIZMACHILIK TALIMINING UZVIYLIGINI TAMINLASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI." GRAL OF SCIENCE 6 (2021): 434-439.
4. 18. Valiev, A’zamjon Ne’matovich. “Oddiy geometrik shakllarning istiqbolli xususiyatlari va uni o‘rganishdagi masalalar haqida”. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF NAZARIY VA AMALIY FANLAR 2.4 (2021): 54-61.